



## **World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy**

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26<sup>th</sup> March 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

### **NATIONAL GAMES AS A MEANS OF UNDERSTANDING REALITY**

Bakhtiyor Khalmuratov

Associate Professor, Namangan State University

Doctor of Philosophy (PhD) in History

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan buyon milliy o'zlikni tiklash, o'zbek xalqining tarixiy o'tmishi haqidagi haqiqatni qaror toptirish, tarixiy, milliy qadriyatlar va boyliklarni uning haqiqiy egasiga qaytarish yo'lida tom ma'nosi bilan olamshumul ishlar amalga oshirildi. O'tgan davrni uning mohiyati va mazmunidan kelib chiqib, hych ikkilanmas-dan buyuk o'zgarishlar davri deb atash mumkin. O'zbekistonning mo'tabar zamini jahon ma'naviyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ulug' va buyuk allomalarni tarbiyalab voyaga yetkazgan muqaddas diyordir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev 2016 yil yakunlariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda, "Eng avvalo, yoshlar va aholi o'rtasida mamlakatimizning boy tarixi, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish ustuvor vazifalardan hisoblanadi"[1. – B. 47.], deb takidlagan edi.

Xalq ijodi namunasi hisoblangan bolalar o'yinlari o'z tarkibida muayyan ritmik izchillikka asoslangan hatti harakat, ramziy ma'no kasb etuvchi etnografik detallar, namunalari, tomoshaviylik elementlarini yaxlit holda mujassamlashtirgan sinkratik hodisadir. Bolalar o'yinlari ajdodlarimiz tafakkurining eng qadimgi elementlaridan biri bo'lgan ibtidoiy rituallar va marosimlarning tarkibiy qismi sifatida juda qadim zamonlarda yuzaga kelgan. Davrlar o'tishi bilan bunday marosimlar tarkibidagi o'yinlar o'zining rituallik



## **World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy**

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26<sup>th</sup> March 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

xususiyatini yo'qotib, oddiy tomosha unsuri yoki ko'ngil ochar vositasiga aylangan.

Bolalar o'yinlarining muayyan bir qismi bevosita qadimgi odamning o'z turmush tarzini badiiy talqin etish ehtiyoji tufayli bevosita mehnat qilish jarayonida shakllangan. Ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, shu-ningdek, qadimgi hunarmandchilik, ajdodlarimizning kundalik turmush tarzi bolalar o'yinlarining kelib chiqishiga asos bo'lgan dastlabki va asosiy ijtimoiy manbalar sirasiga kiradi.

Ajdodlarimizning turmush tarzi ovchilik, chorvachilik bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Ko'chmanchilikka asoslangan turmush tarzi ajdodlarimizdan o'z farzandlarini yaxshi chavandoz, qirag'ay mergan, kuragi yer ko'rmagan pahlavon qilib tarbiyalashni taqozo etar edi. Shuning uchun, ot poyga, tirandozlik musobaqalari, olishuv-kurash, shuningdek, tuya, qo'chqor, xo'roz urishtirish qadimdan keng rasm bo'lgan edi. Ana shu an'analar asosida asrlar davomida o'zbek bolalar o'yinlari mukammal tizimi shakllangan.

Ibtidoiy ajdodlarimiz hali ishlab chiqaruvchi xo'jalikdan bexabar davrlarda tabiat ato etgan nematlarni o'zlashtirish asosida tirikchilik qilganlar. Shu sababdan ham ular hayotida ovchilik va, aynan, u bilan bog'liq o'yinlar muhim o'rin tutgan. Ba'zi manbalarda o'yinlar ovdan oldin o'tkazilganligi haqida yozilgan bo'lsa, boshqalarida ovdan keyingi o'yinlar haqida fikrlar bayon etilgan. Ovdan oldingi o'yinlar ov oldi mashqi, ya'ni ovga tayyorgarlikni tekshirish, ovga ruhiy va jismoniy shaylanish vazifa-sini o'tagan. Tayyorgarlik esa jiddiy, o'ziga xos marosim shaklida uyush-tirilgan. Bu o'yinlar jarayonida ibtidoiy odamlar o'ljani osonroq qo'lga kiritishga tayyorgarlik ko'rganlar. Bu jarayonda ular Tangridan bo'lajak ovlarining baroridan kelishini tilaganlar. O'ljaga sezdirmay yoki u hadiksiramaydigan tarzda yaqinlashish uchun niqob kiyib, yirtqich hayvon



## **World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy**

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26<sup>th</sup> March 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

qiyofasiga kirishni, jonivorlar yurish-turishlari va tovush chiqarish-larini mashq qilgan[2. – C. 572.].

Ana shunday o'yinlar jarayonida yoshlarga ham ov usullari o'rgatib borilgan. Shu boisdan ham bu o'yinlar o'ziga xos tajriba maktabi vazifasini o'tab bir tomondan, ovchilar mahoratini o'stirishga yordam bergan bo'lsa, ikkinchi tarafdin, ularda ruhiy ko'nikma hosil qilgan[3. – B. 59–60.]. O'tmishda otabobolarimiz qadimgi davlatchilik an'analariga ega bo'lgan boy ma'naviyat va moddiy yodgorliklarni meros qoldirgan. Ular chavandozlik, merganlik va yakkakurashning usullarini yaxshi egallagan edi.

Ma'lumotlarga qaraganda, bizning qadimiy ajdodlarimiz o'zlarining turmush tarzlaridan, xo'jalik hayotidan kelib chiqqan holda yilqichilikka va u bilan bog'liq urf-odatlariga asos solib, rivojlantirib borganlar.

“O'zbek dostonlarida “ot” obrazi ba'zan bosh qahramon darajasiga ko'tariladi, – degan edi H. Zaripov, qahramon tug'ilgan kun uning bo'lg'usi yo'ldoshi – jangovar oti ham tug'iladi”[4]. Masalan, “Qoplandi botir” epo-sida “botir va uning otining joni bir bo'lar” degan naql keltirilgan[1– C. 85.].

Ushbu misollar otning inson hayotida tutgan o'rni naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi. Zotan chavandozlik san'atini turkiy xalqlar singari biror bir xalq maromiga yetkaza olmaydi. Hatto vatanimiz tarixining qadimiy yozma manbasi bo'lgan “Avesto”da “chavandoz” so'zining kelib chiqishi to'g'risida shunday ma'lumotlar bor. Ya'ni, “Tarixda qora tulporni jilovlagan Siyovush timsoli “Aspa-barak” nomi bilan mashhur. Bu qadimgi Xorazm tilida “otliq chavandoz” degan ma'noni anglatadi[6. – B. 136.].

Shu bilan birga “Avesto”da quyosh xudosi Mitruga bag'ishlangan qasi-dada “to'rt oppoq tulpor abadiy va uchqur arg'umoq”ni aravaga qo'shilgani, aravalarning tuzilishi ham tasvirlangan,[7. – B. 46.] Amudaryodan topilgan, eramiz-dan avvalgi IV–V asrlarga tegishli xazinada xuddi mana shu so'zlarning



## **World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy**

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26<sup>th</sup> March 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

illyustratsiyasi esa “Avesto”dagi voqyeaning tasvirlanishidir[7. – B. 47.]. Qadimiy tarixiy manbalarimizdan yana biri “Alpomish” dostonida chavandozlik san;ati, Boychibor orqali otlar tavsifi, ommaviy tomoshalar, poyga, uloq-ko’pkari juda tushunarli tarzda bayon qilingan[8. – B. 76–77.].

Qolaversa, yozma manbalarda Markaziy Osiyo xalqlari orasida farzandlarini uch yoshidan ot minishga o’rgatishlarining o’zi bu yerda chavandozlik qay darajada ko’tarilganligini ko’rsatadi. Bu haqda IX asrda yashab o’tgan arab muarrixii al-Jahiz keltirgan ma’lumotlar ahamiyatga molikdir: “U (turk) ot ustida yurishdan sira charchamaydi. Turk yovvoyi hayvonlarga, qushlarga, o’rgatib nishonlarga, harakatsiz narsalarga, yirt-qich hayvon va qushlarning yasama nusxalariga qarata o’q otib, mashqlar o’tkazadi. U otni bor kuchi bilan choptirib kelayotganda ortga, oldinga, o’ngga, chapga, yuqoriga va pastga qarata kamondan hyech qiynoqsiz o’q uzishi mumkin ... Turk bir vaqtning o’zida ham cho’pon, ham ot boquvchi, ham chavandoz, ham ot bilan savdo qiluvchi, ham ularni davolovchidir ...”[9. – C. 56.].

Chavandozlik xalqimizning uzoq o’tmishiga borib taqaladi. Xalqi-miz chavandozlarni doim ulug’lab kelgan. Turkiy xalqlarning o’yinlari haqidagi ilk ma’lumotlar XI asrda yashab o’tgan mashhur turkiyshunos olim Mahmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” asarida qayd qilingan. Bu manbada keltirilgan ma’lumotlar o’zbek bolalar o’yinlarining yuzaga kelishi tarixi hamda evolyusiyasini o’rganish imkonini beradi.

Turkiy qavmlar orasida to’p bilan o’ynaladigan qadimiy o’yinlardan biri – chavgon keng rasm bo’lgan edi. “Devon”da bu o’yin bilan bog’liq quyidagi atamalar keltiriladi: “Tanguq” – chavgon o’yinida koptokni tortilgan o’tovdan o’tkazganga beriladigan ipak kiyimlik[10. – B. 376.]. “Tasal” – chavgon o’yini maydonida chegarani belgilab chizilgan chiziq”, tobiq” – chavgon bilan uriladigan koptok, to’p[10. – B. 345, 360.].



## **World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy**

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26<sup>th</sup> March 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

Kattalarning chavgon o'yini asosida "O't bandal" nomli bolalar o'yi-ni yuzaga kelgan. Mahmud Qoshg'ariy o'z "Devon"ining 1-jildida "bandal" so'zining ma'nosini "bosh qismi cho'qmoqli yog'och" deb izohlaydi. Odatda, bunday cho'qmoqli tayoq bilan chavgon o'yinida koptok urilgan. Bolalar esa bunday cho'qmoqli tayoqlarning uchini yondirib, kechasi bir-birlariga o'qталib, o'ynaganlar. Ana shu o'yin "O't bandal" deb atalgan[10. – Б. 345.].

Bu o'yin o'g'il bolalar tomonidan o'ynalgan bo'lib, ularning qo'rqmas, jasur bo'lib yetishishlarida muhim amaliy ahamiyat kasb etgan. Qadimgi ajdodlarimiz bosqinchi qabilalar hujumini qaytarib, o'zlarini himoya qilishlari uchun jangu jadal sirlarini puxta egallashlari talab qilinardi. Shuning uchun qilichbozlik, nayzadorlik, o'q otish sirlarini o'zlash-tirishi maqsadida turli-tuman jangovar o'yinlarni ham o'ylab topganlar.

Tirandozlik o'yini avvaldan hozirlab qo'yilgan maxsus joyda o'tkazilgan. Otish mashqlari uchun mo'ljallangan joy qadimgi turkiylar tilida "amachlik yer" deb atalgan[10. – Б. 166]. Merganlikka qiziqadigan yigitlar o'q-yoylarini olib, o'sha maydonga yetib borishadi. O'q otiladigan joydan to nishongacha bo'lgan masofa "oqtam", ya'ni "bir o'q otarli masofadagi yer" deb atalgan bo'lsa, nishon esa qadimgi turkiylar tilida "amach" nomi bilan qayd qilingan[10. – Б. 82].

Nazarimizda, kamondan o'q otish musobaqasi dastavval yoshlarning jangovarlik xususiyatlarini qaror toptirish maqsadida o'tkazilgan. Keyinchalik ana shu muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan harbiy o'yin mashqidan "oltin qoboq" tipidagi tomoshaviy o'yinlar kelib chiqqan.

"Oltin qoboq" o'yini qoidasiga ko'ra, 5–6 metrlik yog'ochlardan to'rttasini bir-biriga ulab bog'lanadi. Ana shu tarzda hosil bo'lgan uzun yog'ochning uchiga qo'y oshig'i yoki tanga pulni osib, yog'ochni tikka qilib o'rnatganlar. Merganlar kamon o'qi bilan ana shu yog'och uchiga osilgan oshiq yoki tanga, ya'ni "Oltin qoboq"ni urgan mergan mahsus sovrin egasi bo'lgan[11. – Б. 92–94.]. "Oltin



## **World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy**

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26<sup>th</sup> March 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

qoboq” otish O’rta Osiyo xalqlarining to’y marosim-larida o’ynaladigan an;anaviy o’yinlardan biri bo’lgan[12. – B. 346.].

XI asrda yashagan turkiy qavmlar orasida yong’oq bilan o’ynaladigan o’yin ham bo’lgan. Bu o’yin “Ko’chirma o’yin” deb ataladi. Mahmud Qoshg’ariy ayrim qabilalar tilida bu o’yin “O’n to’rt” deb ham atalishini qayd qiladi. Olimning yozishicha, bolalar yerga qo’rg’onchaga o’xshatib to’rt chiziq tortib, unga o’nta eshik qilgan. Ana shu shaklga tosh yoki yong’oq tashlab o’ynaganlar. To’rt chiziq va o’nta eshik chizilganligiga ko’ra, o’yin nomi “O’n to’rt” deb atalgan bo’lsa kerak.

Yong’oq o’yini hozirgi kunda ham o’zbek bolalarining kuz-qish fasl-larida o’ynaydigan mavsumiy o’yinlaridan biri hisoblanadi. Nazari-mizda, “Ko’chirma o’yin” aslida yumaloq tosh vositasida o’ynalgan. Keyin-chalik bu predmetli o’yinda tosh o’rniga yong’oqdan foydalanish an;anasi yuzaga kelgan.

“Devonu lug’otit turk”ning 3-jildida bolalarning kechasi o’ynay-digan o’yinlaridan biri – “Qarag’uni” haqida ham ma’lumot berilgan[10. – B. 261.]. Bu o’yin ham an;anaviy bo’lib, hozirgi kunga qadar bolalarning o’yinlari tarkibida saqlanib qolmoqda. Ana shunday an;anaviy o’yinlar qatoriga “Qora ko’rdim” nomli o’yinni ham kiritisa bo’ladi. Ushbu o’yinning onaboshi saylash, yashirin, yutqizgan bola sheriklarining qaerda ekanligini aniqlash kabi uzvlari bekinmashoq o’yini bilan deyarli bir xil. Faqat o’yin kechasi o’ynalishi va sheriklarini izlaydigan bola yashiringan o’yinchini ko’rganda “Qora ko’rdim” aytimini aytishi bilan bu o’yin bekinmashoqdan farqlanadi. Nazarimizda, “Qora ko’rdim” o’yini Mahmud Qoshg’ariy asarida keltirilgan “Qorag’uni” o’yinining bugungi kunda saqlanib qolgan varianti bo’lishi kerak.

Qo’qon va andijonliklardan yozib olingan “Yashirin-topaloq” o’yini esa, asosan, kech kirganda, ya’ni qorong’i tushganda o’ynaladi. Habibulla G’ofurovning ma’lumotlariga ko’ra, bu o’yinda qatnashuvchi bolalar ikki guruhga bo’linadi.



## **World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy**

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26<sup>th</sup> March 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

Har bir guruh a'zolari o'ziga boshliq saylab oladi. Keyin bolalar to'plangan joyga doira chizadi. So'ngra bekinishga keta-digan guruhni aniqlab olish uchun bolalardan birov qo'lga tosh yashirib, guruh boshliqlarining oldiga boradi va tosh qaysi qo'lida ekanligini aytib berishni so'raydi. Qaysi guruh boshlig'i yashiringan toshni to'g'ri topsa, o'sha guruh bolalari yashirinadi. Ikkinchi guruh bolalari esa ularni izlab topishadi. Qidirayotganlar berkinganlarni topib, quvlab yetib, yelkasiga do'ppi bilan ursa, u ushlangan hisoblanadi. Bekinganlar bari ushlansa, o'yin tugallangan bo'ladi. Bekinganlardan birortasi hyech kimga tutqich bermasdan, qo'riqchilarni chalg'itib, aylana ichiga oyog'ini bosib iz qoldirsa, u o'z guruhining barcha ushlangan bolalarini qutqazgan hisoblanadi[13. – B. 17–18.]. Bu o'yinning yana bir varianti O'zbekistonning boshqa minta-qalarida “Zim-ziyo” deb ham ataladi[14. – B. 65.].

Turkiy xalqlar o'yinlarida to'p bilan o'ynaladigan predmetli o'yin-lar ham yetakchi o'rin tutgan. “Devonu lug'otit turk”da o'zbek xalq bolalar koptok o'yinlarining genezisi qadimgi turkiylar o'yiniga borib taqali-shini ko'rsatadigan yana bir muhim detal mavjud. “Devonu lug'otit turk”da keltirilishicha, “tuld” fe;lini qadimgi turkiylar “urdi”, “o'ynadi” ma'-nolarida qo'llanganlar. Mahmud Qoshg'ariy shu so'zni izohlash maqsadida “er koptokni ayri bilan urdi” jumlasini keltiradi-da, shunday yozadi: “Bu turklarga xos o'yinning bir turi bo'lib, o'yin katnashchisi o'yinning oldi o'zidan boshlanishini istasa, u koptokni shunday ayri bilan uradi. Koptokni kim qattiq ursa, o'yin o'sha kishidan boshlanadi”[10. – B. 31.].

O'zbek bolalar o'yinlarida “Koptok o'yin”, “To'p otish” singari o'yinlar borki, ular o'yinchilarning to'pni tayoq bilan balandga urib, ilib olishiga asoslanadi. Mahmud Qoshg'ariy tasvirlagan o'yinda tayoq bilan koptokni urish o'yinni birinchi bo'lib boshlovchi shaxsni aniqlash vositasi vazifasini bajargan. Yuqorida



## **World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy**

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26<sup>th</sup> March 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

nomi zikr etilgan o'yinlarda esa ko'ptokni urish o'yin shartlaridan biri bo'lib keladi.

Mahmud Qoshg'ariy keltirgan ma'lumotlar qadimgi turkiylarda qiz bolalarning o'ziga xos o'yinlari mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Ana shunday o'yinlardan biri "yalngu" qizlar – joriyalar tomonidan o'ynalgan. Bu o'yin shunday tasvirlangan: "yalngu" – joriyalar o'ynaydigan bir xil o'yin nomi. Shundayki, arqonning ikki uchi bir daraxtga yoki ustunga bog'lanadi. So'ng ularning biri arqon o'rtasiga o'ltiradi, oyoqlarini sakratib, ba'zi yuqori, ba'zan quyi tushib uchadi"[10. – B. 360.]. Bu o'yin "Halinchak", "Arg'imchoq", "Alvonch", "Sorinchoq uchish" kabi nomlar bilan ataldi va hozir ham o'ynalib kelinadi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, "Devonu lug'otit turk"da qadimgi turkiylar tomonidan ommaviy tarzda o'ynalgan jismoniy o'yinlar, musobaqa tipidagi o'yinlar, bolalarning harakatli, vositali (predmetli) va aqliy o'yinlari haqida g'oyat qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Bu materiallar XI asrda yashagan turkiy qabilalarning o'yinlari rang-barang bo'lganligini, qadimgi turkiy qabilalar o'yinlari bilan bugungi o'zbek xalq o'yinlari orasida vorisiylik, an'anaviylik, genetik aloqadorlik mavjudligini ko'rsatadi.